

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

QO‘RDOSHIM QURDOSH QAHRAMONOV!

Rahmatulla Barakayev,
professor

Qurdosh Qahramonov bilan tanishligimiz talabalikdan boshlanadi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi uiversitet)da oldinma-ketin tahsil olganmiz. U bizdan bir kurs yuqorida o‘qir edi. Birgalikda kechgan paxta terimlariyu student qurilish otryadlari bizlarni yaqinroqdan tanishtirgan dastlabki nuqtalar desam, xato bo‘lmas.

Institutni tugallab, har birimiz, yo‘llanma bilan o‘z viloyatlarimizga ketdik. Men Buxoro viloyatida, Qurdosh Samarqand viloyatida bir necha yil ishladik. Lekin mening xayolimni Toshkentga qaytish, ilmiy ish qilish niyati hech qachon tark qilgan emas.

1980-yil avgustida, ta‘til paytida Toshkentga keldim. Kursdoshimiz Inoyat Rahmonovning uyi Tuzel qishlog‘i yonida bo‘lib, men talabalik paytimda bir necha muddat Inoyatning uyida yashaganman va Toshkentga kelganimda to‘g‘ri uning uyiga kelaman. Inoyat o‘sha paytlarda Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining Bolalar adabiyoti bo‘limida ishlar edi. Gapdan gap chiqib, Inoyat ishdan bo‘shaganini, Qurdosh o‘sha bo‘limda ishlayotganini aytib, Qurdosh bilan uchrashib, maslahatlashishni taklif qildi.

Ertasiga ertalaboq qanot bog‘lab Til va adabiyot institutiga bordim va Qurdoshga uchrashib, ilmiy ish qilish niyatida kelganimni aytdim. Qurdosh bu gapni xursandchilik bilan qabul qildi va bo‘limda bitta laborantlik o‘rni bo‘shligini aytib, meni darrov bo‘lim mudiri Malohat opa Abdurahmonova xonasiga olib kirdi. Men hayronman, nima deyishimni ham bilmayman, chunki men mumtoz adabiyot bo‘yicha ilmiy ish qilmoqchi edim. Institutda o‘qib yurganimda kafedra mudiri, 3 tomlik “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligi 1-kitobining muallifi, mashhur navoiyshunos olim Natan Mallayev rahbarligida “Alisher Navoiy g‘azallarida badiiy san’atlar” mavzusida dastlabki, har holda, ilmiy izlanishga o‘xshagan bir narsa yozib, talabalarning Namanganda bo‘lib o‘tgan respublika olimpiadasida qatnashganman va 1-o‘rinni egallaganman. Maqsadim ishni shu yo‘nalishda davom ettirish edi.

Malohatxon opa bizni juda yaxshi qabul qilib, qaysi yo‘nalishda ilmiy ish qilish niyatim borligini so‘radi. Men to‘g‘risini aytdim. Arab yozuvidagi matnlarni o‘qiy olishimni aytishim bilan opa “Bizning bo‘limga xuddi shunday, eski yozuvni o‘qiy oladigan mutaxassis kerak edi, chunki bolalar adabiyotining 1917-yildan oldingi davri ishlanmagan” deb qoldi va meni darrov O‘zbek adabiyoti tarixi bo‘limining mudiri, mashhur navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetov xonasiga olib bordi. Opa

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

meni domlaga tanishtirib, “bu yigit eski o‘zbek yozuvidan xabardor ekan, bizda bolalar adabiyotining 1917-yildan oldingi davri ishlanmagan, bu kishi o‘sha davr bo‘yicha dissertatsiya qilsa va Siz unga rahbarlik qilsangiz” dedi. Domla bu gapni ma‘qulladi, o‘zlarining bo‘limida bo‘sh ish o‘rni yo‘qligini aytib, ilmiy rahbar bo‘lishga ham rozilik bildirdi. Boshqa gapga o‘rin ham qolmadi.

Xullas, mening Til va adabiyot institutiga ishga kirishimga asosiy sababchi bo‘lgan inson fakultetdoshim Qurdoş Qahramonovdir. Men bu gapni hamma joyda qayta-qayta aytaman, Qurdoşdan minnatdorchiligimni doimo ta‘kidlayman.

Eng asosiysi, shu institutda ishlash mobaynida salkam o‘n yil Qurdoş Qahramonov bilan bir xonada ishladik, hamfikr, maslashedok bo‘ldik. Ana shu davr bizni yanada yaqindan tanishtirdi, nafaqat ilmda maslakdosh bo‘ldik, balki hayotning o‘sha sermashaqqat kunlarida hamdamu qurdoş bo‘ldik. Bir-birimizga hazillashib aytadigan “Filologiya fanlari laboranti” degan noilmiy unvonga egamiz, 100 so‘m maosh olamiz, uning ham 92 so‘mi qo‘limizga tegadi. Oilalikmiz, to‘rttadan farzandimiz bor, ham oilani ta‘minlash kerak, ham ilmiy ish qilish kerak. Buning ustiga oylab qishloq xo‘jalik ishlariga safarbar qilinamiz.

Lekin “inson qiyinchilik kunlarda sinaladi” degan hikmatning naqadar haqligini o‘sha paytlarda anglaganday bo‘ldik, o‘sha og‘ir kunlar odamning saragini sarakka, puchagini puchakka chiqarishining jonli guvohi bo‘ldik. Mana, oradan qirq yildan ortiqroq vaqt o‘tibdiki, Qurdoş bilan doimiy qurdoşmiz, hamfikrmiz, ajralmas o‘rtoqmiz, yaxshi kunimizda xursandchiligimizga sherikmiz, notinch kunimizda tashvishimizni baham ko‘ramiz. Bu orada yana besh yil (2016-2021-yillarda) O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida birga ishladik.

Yaratganga shukurlar bo‘lsinki, qiyinchilik kunlar orqada qoldi, Qurdoş Qahramonov bugun fan doktori, professor, ilmda o‘zining yo‘nalishiga ega bo‘lgan, qator monografiya, darslik, ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar muallifi, doimgiday fikrida sobit, qat‘iyatli taniqli olim. U ko‘p yillar Toshkent davlat pedagogika universitetida dotsent, professor, kafedra mudiri, Til va adabiyot instituti (hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti)da laborantlikdan bo‘lim mudirigacha bo‘lgan lavozimlarda ishladi. Halol mehnati bilan oliy ta‘limda qanchalik o‘z munosib o‘rnini topgan bo‘lsa, ilmda ham shu qadar sharafiga sazovor bo‘ldi.

Do‘stimiz Qurdoşbek ilmda erishgan muvaffaqiyatlarining barchasiga tinimsiz izlanishlar, uyqusiz tunlar, ko‘z nuriyu peshana teri evaziga erishgan, hayotda nimagaiki sazovor bo‘lgan esa, avvalo, oilani hamma narsadan aziz ko‘rgani, sadoqatli turmush o‘rtog‘i Naziraxon bilan bir umr hamdamu hamnafas bo‘lib, farzandlarining ota-onaga munosib, halol, pok insonlar bo‘lib yetishuvi yo‘lida barcha qiyinchiligu mashaqqatlarni mardlarcha yengib o‘tgani tufayli erishgan.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Uning hayotida farzandlari jamiyatda qanchalik o‘z o‘rnini topgan bo‘lsa, atrofida har doim sadoqatli shogirdlari, do‘stlari, qadrdonlari jamuljam. Bularning barchasi Qurdozbekning bag‘ri kengligi, oilayu do‘stlarga mehriyu sadoqatining tabiiy mahsullaridir.

Shafqatsiz hayotda, biz istaymizmi, yo‘qmi, kunlar, oylar, yillar suvday oqib o‘taverar ekan, mana bugun do‘stimiz Qurdozbek Qahramonov umrining 70 bahorini shukrona bilan nishonlayapti. Maktabda o‘qiganimizda “Adabiyot” darsliklarida ko‘rganim – G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhorlarning suratlari beixtiyor ko‘z oldimga keladi. Ular 60 yoshlaridagi suratlarida rosmana nuroniy chollar edi. Yaratganga yana bir bora shukurlar bo‘lsinki, Qurdozbek do‘stimiz hali navqiron yigit, uning hali qanchadan qancha ezgu tilaklari, niyatlari bor. Bir qarindoshimizning ancha avvalroq aytgan, men uchun hikmatga aylanib ketgan gapi beixtiyor yodimga keladi. U kishi: “Farzand boqish voyaga yetganicha, nevara boqish umringning oxirigacha” degan edi. Mening ellik yillik qadrdonim (buni qarangki, tanishganimizga ham ko‘z yumib ochguncha ellik yildan oshibdi) Qurdozbekka niyatim shuki, og‘aynijon, farzandlar, nevaralar nima bo‘libdi, Sizga Naziraxon bilan birgalikda hali ko‘p yillar evara, chevaralarning ham baxt-saodatini ko‘rib yurish nasib qilsin, uzoq yillar jo‘ralar davrasida bir-birimizga doimo yaxshi niyatlar tilab yurish baxtini musharraf qilsin!

“Qo‘rdosh” degani, nazarimda, eng eski turkiy so‘zlardan bo‘lib, kalta aqlim yetishicha, qo‘r, ya‘ni gulxan atrofiga yig‘ilgan qabila a‘zolari degan ma‘noni anglatadi. Bu hozirgi kun nuqtayi nazaridan “hamfikrlar”, ya‘ni bir xil fikrdagilar degan ma‘noga yaqin kelsa kerak. Biz qadrdonim Qurdozbek Qahramonov bilan xuddi shunday bir xil fikrlovchilarmiz, ya‘ni qo‘rdoshlarmiz! Qo‘rdoshligimizga aslo ko‘z tegmasin!